

MUAMMOLAR O'Z YeChIMINI TOPMOQDA



MUAMMOLAR O'Z YeChIMINI TOPMOQDA

Hududlarda yoshlar yetakchilari tomonidan "Yoshlar balansi" ni shakllantirishga qaratilgan xatlov natijasi o'laroq, yoshlarning muammolari ham o'rganilib, ularning hal etish yo'llari ham topilayotir.

Saribozorcha mahalla fuqarolar yig'ini yoshlar yetakchisi Muhib A'zamjonovning ma'lumotiga ko'ra, ayni kunda o'tkazilayotgan xatlov orqali muammosi bo'lgan yoshlar kamchiliklari o'z yechimini topmoqda va bugun birinchi natijalar ham qo'lga kiritilmoqda.

Mahalladagi hokim yordamchisi Rashidjon Inomjonov va yoshlar yetakchisi Muhib A'zamjonovlar ko'magi bilan Sohibjon Asho'raliyevning qilgan murojaatini ijobiy hal etish maqsadida tuman bandlikka ko'maklashish markazi hamkorligida subsidiya asosida suv nasosi yetkazib berildi.

Bildirilgan murojaat va muammo tez orada ijobiy hal etilganidan xursand bo'lgan fuqaro bunday e'tibor uchun minnatdorchilik bayon etdi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-03-08 14:33:14